

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08
RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AXMEDOV JASUR ISRAILOVICH

GLOBAL SIYOSIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA IJRO HOKIMIYATI
LEGITIMLIGINI TA’MINLASH TEXNOLOGIYALARI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата дотора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Axmedov Jasur

Global siyosiy o‘zgarishlar sharoitida ijro hokimiyati legitimligini ta’minlash texnologiyalari3

Ахмедов Жасур

Методы повышения легитимности государственной власти в условиях глобальных политических изменений22

Akhmedov Jasur

Methods of increasing the legitimacy of state power in the context of global political changes.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08
RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AXMEDOV JASUR ISRAILOVICH

GLOBAL SIYOSIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA IJRO HOKIMIYATI
LEGITIMLIGINI TA’MINLASH TEXNOLOGIYALARI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziriligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.4.PhD/Ss3 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.Ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utamuradov Akbar

falsafa fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Holbekov Abdugani Jumanazarovich

siyosiy fanlar doktori, professor

Jumayev Rustam Ziyodovich

siyosiy fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «28» mart soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi 5-qavat, 511-xona). Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ da tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.I. Paxrutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

K.M.Mirzaaxmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.G. Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida siyosiy tizim rivojlanishining dinamik o'zgarib borishi, ma'muriy islohotlar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviylashtirish jarayonlari aynan ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini legitimligini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ijro hokimiyati tizimini legitimlashtirishdan asosiy maqsad-boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini optimallashtirish, ularni boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlari, iqtisodiy tuzilmalar faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Ijro hokimiyati tizimida katta funksional vazifalar, moddiy va insoniy resurslar to'plangan bo'lib, bu holat ijro etuvchi hokimiyatning jamiyatda tutgan legitim o'рни va ahamiyatiga ta'sir etadi. Shu bois, ijro hokimiyati tizimiga kiruvchi organlarning faoliyati aholining bevosita kundalik turmushi masalalari bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan legitimlikka, ijtimoiy adolatga, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini samarali mexanizmlarini shakllantirish talabi dolzarblashmoqda.

Rivojlangan davlatlarda ijro hokimiyati tizimidagi davlat organlari faoliyati yuzasidan parlament nazorati hamda jamoatchilik nazoratini ijtimoiy, siyosiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot izlanishlari amalga oshirilmoqda. Ijro hokimiyatining jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashdagi qonuniy vazifalari ijrosida legitimlik samaradorligini oshirish, hokimiyat tizimida tutgan o'рни, ya'ni uning boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan o'zaro muvozanati va mutanosiblikni kuchaytirishning samarali mexanizmlari hamda tartibini shakllantirish kabi masalalarni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada ijro hokimiyatining maqomi, uning tarkibi va funksiyalariga oid faoliyatni tashkil etishda, davlat, jamiyat oldidagi legalligi hamda legitimligining shakllantirishning siyosiy mexanizmlari tartibini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha bugun keng ko'lamli ma'muriy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda natijadorlikka yo'naltirilgan ixcham va professional davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini yangilangan talablar, tamoyillar asosida tashkil etish, bu eng avvalo inson qadri va inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan samarali islohotlardir. Zero, "...bizning maqsadimiz-yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat"¹. Bu boradi davlat hokimiyatining muhim tarmog'i bo'lgan ijro organlari legitimligini ta'minlash, uni tashkil etuvchi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 20 sentyabr.

komponentlar, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni amaliy jihatdan tadqiq etish jamiyatning istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5843-son «O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2022 yil 21 dekabrda PF-269-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2019 yil 9 dekabrda PQ-4546-son "Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 27 iyundagi PQ-4365-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni takomillashtirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat va jamiyatni boshqarish nazariyasi va amaliyoti, evolyusiyasi, istiqbollarni bashoratlash, mazkur jarayonni etakchi davlatlar tajribasi asosida qiyosiy tadqiq etish muammoning o'rganilganlik darajasiga misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlari, xususan, davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» natijalari, 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonida ilgari surilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish borasidagi g'oyalari ushbu tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lsa, sohaga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning uslubiy bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati va davlat o'zaro munosabatlarining nazariy, amaliy jihatlar qadim zamonlardayoq Konfutsiy, Platon, Aristotel, Suqrot, Sitseron tomonidan o'rganilgan. Sharqda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlarida²

² Dissertatsiyada ushbu mualliflarning tadqiqotlaridan unumli foydalanilgan.

jamiyat tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarini siyosiy-falsafiy tizimli tahlil qilish asosida jamiyat siyosiy tizimini shakllantirish uslubiyati, tizimlari va jarayonlari rivojlantirilgan.

O'rta asrlarda N.Makiavelli, G.Boden, T.Gobbs, J. Lokk, Sh.Monteske, J.J.Russo, M. Veber, I.Kant asarlarida davlat va jamiyat munosabatlariga doir siyosiy qarashlar takomillashtirilgan. XIX-XXI asrlarga kelib, G'arb nazariyotchilari M.Veber, E.Giddens, R.Dalya, M. Levi, S.Lipset, G.Almond, D.Apter, S.Blek, S.Verba, Sh.Eyzenshtadt, U. Rostou, T.Parsons, K. Doych, G.Spenser, X.Arent, R.Aron, R.Berstedt, P.Blau, D.Boldvuin, T.Vartenberg, S.Lyuis, D.Rong; rus olimlari N.Berdyayev, F.Burlatskiy, K.Gadjiev asarlarida davlat hokimiyatining ochiqligi, demokratikligi, legitimligi ochib berilgan.

Global siyosiy o'zgarishlar sharoitida MDH doirasida davlat hokimiyati legitimligini ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari A.A.Kerimov, A.V.Ufimsev, E.N.Chernitsina, A.B.Tursunkulov, V.V.Podobniy, A.A.Tlostnakov, V.B.Plavinskiy, S.V.Korostelev, G.V.Alekseev, A.M.Mikeladze kabi olimlar tomonidan batafsil o'rganilgan³. Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat hokimiyati jamiyatda ijtimoiy-siyosiy assimetriya asosida yuzaga keladigan uni boshqarish ehtiyojlari bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatni amalga oshiradi. Davlat hokimiyati mohiyati tegishli organlarning vakolatlari hamda ayrim shaxslarning siyosiy irodasi ularning harakatlaridagi boshqarish va bo'ysunish munosabatlari bilan belgilanadi. Davlat hokimiyati – sinflar va umuminsoniy manfaatlarni ta'minlash maqsadida jamiyat hayotining turli sohalariga tegishli ijtimoiy-siyosiy usullar yordamida ta'sir ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan vakolatlarni ifodalaydi.

Mustaqillik yillarida davlat hokimiyatining o'zgaruvchan xarakteri, u rivojlanishining aniq vektoriga ega bo'lishi, davlat hokimiyati legitimligi ayrim qirralari, davlat va jamiyat oldida turgan strategik vazifalarning yechimiga doir muammolar tahlili o'zbekistonlik olimlar, jumladan, Sh.Paxrutdinov, R.Jumayev, S.Otamuratov, S.Jo'raev, M.Qirg'izboev, I.Ergashev, V.Qo'chqorov, A.Begmatov, A.Xolbekov, M.Bekmurodov, F.Musaev, J.Mavlonov, A.Xudayberganov, A.Shaimqulov, S.Bekchanov, R.Alimov, H.Axmedov, F.Jo'raqulov, R.Jo'raev, O.Hasanov, J.Akromov, H.Jo'raqobilova, F.X.Xikmatov, K.Mirzaaxmedov, A.Abduxalilov, A.Nazarov, B.Berdiev, J.Yusupov, A.Yusupov, A.Xolmaxmatov, B.Rasulov va boshqalar tadqiqotlarida o'rganilgan⁴. Ammo, ushbu mualliflar tadqiqotlarida global siyosiy o'zgarishlar sharoitida davlat hokimiyatining legitimligi barqaror taraqqiyotning muhim omili ekanligi masalasi to'laqonli ochib berilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "PZ-20170928696 raqamli "O'zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning

³ Mazkur tadqiqotchilar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da berilgan.

⁴ Mazkur tadqiqotchilar asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da berilgan.

konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy grant dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Global siyosiy o‘zgarishlar sharoitida ijro hokimiyati legitimligini shakllantirish usullari va mexanizmlarini ochib berish hamda ijro hokimiyati tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

global siyosiy o‘zgarishlar va legitimlik tushunchalarini strukturaviy-funksional jihatdan tahlil etish;

ijro etuvchi hokimiyat legitimligini shakllantirish genezisi va uning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;

rivojlangan mamlakatlarda ijro etuvchi hokimiyat tizimini legitimlashtirish tajribasi qiyosiy o‘rganish hamda siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish darajasini aniqlash;

globallashtirish davrida ijro etuvchi hokimiyat legitimligini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy omillari va ta’minlanish texnologiyalarini ochib berish;

korruptsiyaga qarshi kurash – ijro etuvchi hokimiyat legitimligini ta’minlashning muhim omili va sifat ko‘rsatkichi ekanligini asoslash;

O‘zbekistonda ijro etuvchi hokimiyati legitimligini takomillashtirish strategiyasi borasida ustuvor yo‘nalishlar hamda siyosiy islohotlar genezisini ochib berish;

Yangi O‘zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot uchun xizmat qiluvchi ijro hokimiyati legitimligini samarali shakllantirishning tizimli, institutsional, funksional integratsiyasi yuzasidan ilmiy – nazariy taklif va xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijro hokimiyati legitimligi hamda institutsional mustaqilligini takomillashtirish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini Global siyosiy o‘zgarishlar sharoitida ijro hokimiyati legitimligini shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq siyosiy, tashkiliy, huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy bilish metodlari: tarixiylik, tizimli tahlil, ob’ektivlik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, tarkibiy funksional yondashuv, kontent tahlil va faktik ma’lumotlarni umumlashtirish natijalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijro hokimiyati legitimligining samarali tipologiyasi sifatida rahbar xodimlarida liderlik, moslashuvchanlik, kommunikativlik, tizimli faoliyat kompetensiyalarini shakllantirish ijro hokimiyatining institutsional mustaqilligi va jamoatchilik oldida hisobdorligini ta’minlovchi omillar ekanligi ochib berilgan;

ijro hokimiyatini aholiga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hamda huquqiy tartibga solish funksiyalarini raqamlashtirilgan

(avtomatlashtirish) tizimga o'tkazish inson omili qisqartirilgan faoliyatining samarali legitimlashuviga olib kelishi asoslangan.

ijro hokimiyati organlari faoliyatini bahollashning davlat xizmatlarini ko'rsatish, xalq bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, aholini qiynayotgan tizimli muammolarini bartaraf etish hamda qonunlar ijrosini samarali amalga oshirish kabi maqsadli ko'rsatkichlar bilan belgilash yagona davlat siyosatini amalga oshirishdagi legitimligiga xizmat qilishi asoslab berilgan;

ijro etuvchi hokimiyatning boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan hamkorlikda ishlashi texnologiyalarini takomillashtirishda inson qadri, manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi rolini kuchaytirishda ijro hokimiyati organlarining vakillik organlari oldidagi mas'uliyati, hisobdorligini oshirish davlat hokimiyatini legitim demokratlashuv darajasi ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada ijro hokimiyatining davlat hokimiyati tizimidagi legitim o'rni belgilash maqsadida uning boshqa hokimiyat tarmoqlaridan jumladan, davlat hokimiyatining qonunchilik, sud organlaridan institutsiyaviy jihati, davlat xizmatchilaridan personal jihati hamda davlat funksiyalarining amalga oshirishdagi kollegial, yakkaboshchilik kabi jihatlari va farq qiluvchi xususiyatlari tasniflangan;

ijro hokimiyati organlari tizimi, mansabdor shaxslari hamda qonuniy tartibda o'rnatilgan davlat funksiyasini amalga oshirishda ijro etuvchi hokimiyat organining vazifa va funksiyalarini aniq chegaralash, shuningdek, hududlar kesimida faoliyat samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ish ko'rsatkichlarining maqsadli harakatlar dasturini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanma va u haqdagi retsenziyalar, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyati Yangi O'zbekiston sharoitida ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, legitimligini mustahkamlash jarayonlarini o'rganishga qaratilgan nazariy tadqiqotlarni yanada boyitish, oliy ta'lim muassasalapida siyosiy fanlap, davlat va jamiyat boshqaruvi asoslari, jamiyatshunoslikka oid fanlarni o'qitishda, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan ma'ruza matnlari, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ijro hokimiyati legitimligini shakllantirish jarayonini rivojlantiruvchi siyosiy institutsional tizim elementlarining funksional integratsiyalashuvini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, siyosiy partiyalar, yoshlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, dissertatsiya materiallari “Siyosatshunoslik”, “Siyosiy menejment”, “Boshqaruv mahorati”, “Zamonaviy boshqaruv” kabi kurslar mazmunini takomillashtirish va ularni yangi ma’lumotlar bilan boyitish, darsliklar yaratishda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Global siyosiy o’zgarishlar sharoitida ijro hokimiyati legitimligini ta’minlash texnologiyalari borasida olingan ilmiy natijalar quyidagi faoliyatlarga tatbiq qilingan:

ijro hokimiyati legitimligining samarali tipologiyasi sifatida rahbar xodimlarida liderlik, moslashuvchanlik, kommunikativlik, tizimli faoliyat kompetensiyalarini shakllantirish ijro hokimiyatining institutsional mustaqilligi va jamoatchilik oldida hisobdorligini ta’minlovchi omillar ekanligi ochib berilganligi borasidagi ilmiy yangilik asosidagi taklif hamda tavsiyalardan «Fuqarolik jamiyati» fani bo’yicha o’quv qo’llanma tayyorlashda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 20 iyuldagi 654-son buyrug’i, nashr ruxsatnomasi № 654-004). Natija «Fuqarolik jamiyati» fani bo’yicha o’quv qo’llanmani nazariy-metodologik jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijro hokimiyatini aholiga xizmat ko’rsatishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hamda huquqiy tartibga solish funksiyalarini raqamlashtirilgan (avtomatlashtirish) tizimga o’tkazish inson omili qisqartirilgan faoliyatining samarali legitimlashuviga olib kelishi asoslanganligi to’g’risidagi ilmiy yangilik asosidagi taklif hamda tavsiyalardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazida “Yangi O’zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g’oyasini ro’yobga chiqarishga qaratilgan umummilliy harakatni yuzaga keltirish chora-tadbirlari 8-bandida ko’zda tutilgan targ’ibot ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2021 yil 24 dekabrda 02/02/1752-son dalolatnomasi). Natija ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, debatlarining maqsadli o’tishiga xizmat qilgan;

ijro hokimiyati organlari faoliyatini bahollashning davlat xizmatlarini ko’rsatish, xalq bilan ochiq muloqotni yo’lga qo’yish, aholini qiynayotgan tizimli muammolarini bartaraf etish hamda qonunlar ijrosini sifatli amalga oshirish kabi maqsadli ko’rsatkichlar bilan belgilash yagona davlat siyosatini amalga oshirishdagi legitimligiga xizmat qilishi asoslab berilgan to’g’risidagi ilmiy yangilik asosidagi taklif hamda tavsiyalardan O’zbekiston liberal-demokratik partiyasi faoliyatida ilmiy-amaliy va uslubiy ishlarda manba sifatida foydalanilgan O’zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo’mitasining 2021 yil 27 dekabrda 01-27/ 981-son dalolatnomasi). Natija davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ilmiy asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar va “Yo’l xarita”lari ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ijro etuvchi hokimiyatning boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan hamkorlikda ishlashini takomillashtirish hamda inson qadri, manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi rolini kuchaytirishda ijro hokimiyati organlarining vakillik organlari oldidagi mas’uliyati va hisobdorligini oshirish davlat hokimiyatini

legitim demokratlashuv darajasi ekanligi ochib berilganligi to'g'risidagi ilmiy yangilik asosidagi taklif hamda tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatida amaliy-tahliliy va tanqidiy yondashuvlarni tatbiq etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 31 yanvardagi 4-13-23-253-son dalolatnomasi). Olingan natijalar "Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ishlashni tashkil qilish, shuningdek yoshlarning ijro hokimiyatining legitimligini baholash layoqatini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 3 ta ilmiy-amaliy, 4 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda aprotatsiyadan o'tgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta (5 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda) maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 7 ta maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi, vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Global siyosiy o'zgarishlar sharoitida ijro etuvchi hokimiyat legitimligini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan. Ushbu bobda “global siyosiy o'zgarishlar” va “ijro hokimiyati legitimligi” tushunchalarining strukturaviy-funksional tahlili, ijro hokimiyati legitimligining genezisi, rivojlanish xususiyatlari hamda global siyosiy o'zgarishlar sharoitida rivojlangan mamlakatlarning ijro hokimiyati legitimligini ta'minlash borasidagi amaliy tajribasi ilmiy nuqtai nazardan ochib berilgan.

Global siyosiy o'zgarishlar dinamikasi o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Jumladan, jahon siyosati va iqtisodiyotining inqirozga yuz tutishi; global savdo hajmining pasayishi; global moliyaviy oqimlar intensivligini pasayib borishi va iqtisodiy investitsiyalar hajmi kamayishi; dunyoning siyosiy liderlari faoliyatidagi murakkablik va boshqa global siyosiy sub'ektlar faoliyati va ular qabul qiladigan siyosiy qarorlari jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi har bir mamlakatda ijro hokimiyati faoliyatida legitimlikni ta'minlashning institutsional va funksional ko'rsatkichlari hamda uning legitimligini baholash indikatorlarini muntazam ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda.

Globallashuv va davlat hokimiyati legitimligi masalasi bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Globallashuv insoniyat taraqqiyotining XXI asrdagi yuksak bosqichi sifatida tarix zarvaraqlaridan o'rin olmoqda. U bugungi kunda nafaqat fan, texnika va texnologiyaning yuksak darajada rivojlanishi va uning butun ro'yi zaminda ommaviylashuvining ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, dunyoning ko'zga ko'ringan nazariyotchilari, ekspert va mutaxassislari globallashuvni iqtisodiyotda kechayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori, AQSH Kolumbiya universiteti professori Jozef Stiglits, AQSHning taniqli faylasufi va sotsiologi Frensis Fukuyama, shu mamlakat prezidentining sobiq yordamchisi, taniqli sotsiolog Zbignev Bjezinskiy, iqtisodiyotni Bombay, Kembrij, Oksford, Kolumbiya universitetlari va Massachuset texnologiya institutida o'rgangan globallashuv bo'yicha ekspert, dunyoning etakchi iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati va boshqa qator iqtisodchilar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayon sifatida qaraydilar. Jozef Stiglitsning fikri quyidagicha: “Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamakatlar aholisi yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash,

insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi”⁵. Jagdish Bxagvati fikricha, “Bu – o‘ziga savdo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o‘z ichiga oladi”⁶. Vyacheslav Nikonovning fikricha, “Globallashuv davlatning ichki va tashqi siyosati chegaralarini bartaraf etishga yordam beradi va xavfsizlik siyosatining mohiyatini o‘zgartiradi.”⁷

Ma’lumki, globallashuv jarayonlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan davlat faoliyatining yo‘nalishlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, biroq hozirgi axborot asrida ham davlatning substansional, xududiy va institutsional elementlari, ayniqsa suverenitet masalalari o‘zining mumtoz ahamiyatini to‘la saqlab qolishi zarur. Bu masala rivojini sun’iy tezlashtirish va sun’iy sekinlashtirish birdek maqsadga nomuvofiq. Har bir davlat o‘ziga xos hodisa bo‘lib, uning taqdiri yaxlit bir xalq taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir.

Globallashuv, ssivilizatsiyalar to‘qnashuvi, yangi global tahdid va xavf-xatarlar, ikkinchi tomondan, milliy davlatchilikni shakllantirish siyosatida yangi evolyusion yondashuvni yuzaga keltirdi. Davlatlarning bir vaqtning o‘zida xalqaro hujjatlarga tayanishi, umuminsoniy qadriyatlar o‘z ifodasini topishi va milliy manfaatlar murakkab masala hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlash davlatlarning ichki va tashqi siyosati ustuvor yo‘nalishlarining o‘zgarishiga olib keladi. Xalqaro hujjatlarga asoslangan davlat siyosatini amalga oshirishda milliy qadriyatlar va xalq an’analariga rioya etish bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bir tomondan, davlat hokimiyati legitimligi rivojlanishida milliy madaniyat va ma’naviyatdan kelib chiqqan holda yondashuvni qo‘llash, ikkinchi tomondan, milliy va xalqaro miqyosga davlat siyosiy hokimiyati faoliyati qonuniyligini ta’minlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ma’lumki, har bir mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning natijadorligiga erishishda davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg‘un faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o‘tkazilayotgan islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga hamda qo‘yilgan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qiladi. Xususan, davlat funksiyalari va vakolatlarining haddan tashqari markazlashtirilganligi hududlarni rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va aholining eng muhim muammolarini hal qilishda ijro etuvchi hokimiyat organlari rolining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ijro etuvchi hokimiyat – davlat hokimiyatining mustaqil turi bo‘lib, qonunosti tartibga solish, tashqi siyosatda vakillik qilish, ma’muriy boshqaruvni amalga

⁵ O‘sha manba. – B. 42.

⁶ O‘sha manba. – B. 44.

⁷ O‘sha manba. – B. 45.

oshirish kabi davlat ishlarini boshqarish bilan bog'liq vakolatlar majmuini ifodalaydi. Shunday qilib, ijro etuvchi hokimiyat o'zida ushbu vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimini ifodalaydi. Ijro etuvchi hokimiyatning asosiy maqsadi jamiyat manfaatlarini, aholi ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati jarayonida Konstitutsiya va qonunlarning amalda tatbiq etilishini tashkillashtirishdan iborat. U davlat-hokimiy vakolatlarni ommaviy, asosan ma'muriy huquqqa tegishli usul va vositalarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi⁸. Ijro etuvchi hokimiyat ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat xizmatchilari hamda yuridik (huquqiy) tuzilmalardan (hokimiyat organlari va mansabdor shaxslar vakolatlari ko'lamini belgilab beruvchi normalar tizimi) tashkil topgan.

Ijro etuvchi hokimiyatning ahamiyati u amalga oshiradigan funksiyalar bilan ham belgilanadi. "Funksiyalarni ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining etakchi yo'nalishlari sifatida baholash mumkin; ularda ushbu davlat hokimiyat tarmog'iga yuklangan butun ma'suliyat o'z aksini topadi hamda u ijro etuvchi hokimiyat organlariga berilgan davlat-hokimiy vakolatlar hajmi bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, funksiyalar deganda davlat ijro etuvchi hokimiyat oldiga qo'ygan maqsadlar ham, uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari ham, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan huquqiy vositalar (huquq va majburiyatlar) ham tushuniladi"⁹.

Zamonaviy hokimiyat taqsimotining birinchi muhim xarakteristikasi bu ijro hokimiyati va qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rtasidagi yaqin o'zaro aloqalarni tashkil etishdir. Fransiyalik olim J.L.Shabo¹⁰ vakillik va ijroiya hokimiyatining faoliyati ularning bo'linish prinsipiga asoslangan davlatlarni (AQSH), hamkorlikka asoslangan davlatlarni (Buyuk Britaniya) yoki aralash usulga asoslangan (avtoritar rejimlar) davlatlarga bo'linishini ajratib ko'rsatgan.

Umumiy jabhada, xorijiy mamlakatlarda mahalliy vakillik organlarining ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat olib borish, ijro hokimiyati organi rahbariga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish, mahalliy byudjetning ijro etilishini nazorat qilish, qonunlar ijro etilishini tekshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash, deputatlik so'rovi yuborish kabi nazorat shakllari orqali faoliyatni legitimlashtirishni tartibga solish hamda amalga oshirish mexanizmi o'rnatilgan.

Bugun amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki XXI asrga kelib ijro hokimiyati organlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni tizimlashgan shaklda amalga oshirishga e'tibor qaratila boshladi. Bugungi kunda davlat

⁸ Новая система и структура органов исполнительной власти: справ-учебное пособие.- М.: Волтерс Клувер, 2005. – С. 46; Медведев В.Н. Система исполнительной власти в Российской Федерации: правовые аспекты обеспечения принципа единства: Автореф. дисс. ... к.ю.н. – М., 2004. – С. 15.; История становления и современное состояние исполнительной власти в России / Отв. ред. Н.Ю. Хаманева. – М., 2003. – С. 54.; Бобылев А.Н., Горшкова Н.Г., Ивакин В.И. Исполнительная власть в России. Теория и практика ее осуществления. – М., 2003. – С. 71.; Исполнительная власть в Российской Федерации. Проблемы развития / Отв. ред. И.Л. Бачило. – М.: Юристъ, 1998. – С. 161-172.; Исполнительная власть: организация и взаимодействие. – М., 2000. – С. 121-122.; Исполнительная власть в Российской Федерации/Под ред. А.Ф. Ноздрачева, Ю.А. Тихомирова – М., 1996. С. 70-80.; Полянский И.А. Правовая природа исполнительной власти и ее место в организации государственной власти // Правоведение. – 1999. – № 4. – С. 27.

⁹ Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. – Ташкент: ТГЮИ, 2003. – С. 140.

¹⁰ Шабо Ж.-Л. Основные типы легитимности. / Ж.Л.Шабо // Политические исследования. 1993. - № 5. - С. 137 - 143.

xizmatida samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish qadriyat sifatida namoyon bo'lmog'da. Ijro hokimiyati organlarida samarali boshqaruvi qarorlarini qabul tizimining mavjudligi uni legitimlashtirishning kafolati hisoblanadi.

Bugungi kunda ijro hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qaror qabul qilish jarayoniga manfaatdor tomonlar, jamoatchilikni keng jalb etilmasligi samarasiz boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga olib kelmoqda. SHuningdek, boshqaruv qarorlariga quyiladigan talablar va mezonlarni hisobga olmaslik, qarorlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, tashkiliy, texnologik, huquqiy va ekologik samaradorligini baholash imkoniyatini cheklaydi.

Xulosa shuki, davlat hokimiyati boshqaruvi muayyan bir dinamikaga ega bo'lgan ijtimoiy o'zaro munosabatlarning shakli sifatida hokimiyat va bo'ysunish munosabatlaridagi o'zgarishlarning mohiyatini, jamoatchilik kutgan natijalarga ko'ra, bashorat qilishga imkon beradigan rivojlanishning ijtimoiy naqshlarini ajratib ko'rsatishi kerak. Davlat boshqaruvini o'zgartirishda bunday qonuniyatlarning aniqlanishi samarali davlat boshqaruvi uchun ijtimoiy resurslar asos ekanligi haqidagi farazni tasdiqlaydi. Bu kuch tuzilmalarni mavjud ijtimoiy ehtiyojlarga tezda moslashtirishga imkon beradi, bu esa davlat institutining samaradorligini saqlab, ijtimoiy tizim barqarorligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Globalashuv davrida ijro etuvchi hokimiyat legitimligini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy omillari»** deb nomlangan bo'lib, unda ijro hokimiyati legitimligini ta'minlashning siyosiy texnologiyalari, korrupsiyaga qarshi kurash - davlat hokimiyati legitimligini ta'minlashning muhim omili ekanligi va jahon mamlakatlarida ijro etuvchi hokimiyat legitimligini ta'minlashning dinamik tahlili atroflicha ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Ma'lumki, bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Barcha sohalar islox qilinmoqda va zamon talablari bilan yangi texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bundan davlat boshqaruvi ham mustasno emas. Jahon miqyosida ham, respublikamizda ham hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, hisobdorlikni tizimli yulga quyish, firibgarlik va korrupsiyaga barxam berish hamda davlat byudjeti mablag'laridan unumli foydalanish, shuningdek, fuqarolarga samarali xizmat ko'rsatish hukumatlar oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

E'tirof etish kerakki, avvalo, davlat hokimiyatining, xususan, davlat boshqaruvining uslublari demokratlashuvi, boshqaruvda ma'muriy uslublardan iqtisodiy uslublarga keng tarzda o'tilishi kabi holatlar natijasida, "boshqaruv", "davlat boshqaruvi" atamalari yangi mazmun va mohiyat kasb etayotganligi va bu tushunchalar haqiqatan ham bugungi kunda qayta mushohada etilishga muhtoj ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari ijro hokimiyatining real maqomi, uning faoliyatida legitimlikni ta'minlash zarurligi, qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan ijro hokimiyati faoliyati yuzasidan olib boradigan nazoratning shakl va usullarini takomillashtirish zarurligini taqozo etadi. Biroq, bugungi global siyosiy

o'zgarishlar ijro hokimiyatining legitimligini ta'minlashda ko'p darajali murakkab o'zaro ta'sirni yuzaga keltirmoqda bu muammoni o'rganishda integratsiyalashgan kompleks amaliy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Global siyosiy o'zgarishlarda inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, global siyosiy o'zgarishlar turli darajadagi iqtisodiy tendensiyalarning rivojlanish strategiyasi bilan chambarchas bog'liq. Ular, bir tomondan, jahon siyosati va iqtisodiyotining o'ziga xos shakllanishi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ba'zi rivojlangan davlat rahbarlari tomonidan qabul qilingan samarasiz siyosiy qarorlarni jamiyat hayotiga tatbiq qilishga urinish bilan bog'liq. Agar globallashuv o'ziga xos ob'ektiv hodisa bo'lsa, u holda global siyosiy o'zgarishlar ko'pincha siyosiy liderlar, turli mamlakatlarning siyosiy iste'dod egalari umuman, global siyosiy ishtirokchilarning samarali faoliyat natijasi bo'lib, ularning ratsional faoliyat yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi.

Ijro hokimiyatining legitimligi muammosi har qanday siyosiy tizim, har qanday siyosiy rejimning dolzarb muammosidir. Hokimiyat o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy tabiati tufayli legitimlikka muhtoj, bu unga barqarorlik, takrorlanuvchanlik va uzoq muddatli mavjud bo'lishlikni ta'minlaydi. Shu boisdan ham, ijro hokimiyati legitimligi bu hokimiyatning kelib chiqishi, rivojlanishi va o'zaro bo'ysunishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni sifat jihatidan tavsiflaydigan boshqaruvchi va boshqariluvchilar o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlardir degan xulosaga olib keladi. Siyosiy legitimlik siyosiy tizimning ob'ektiv xarakteristikasi va jamiyat siyosiy madaniyatining ajralmas qismidir. U o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki hokimiyatni qonuniylashtirish, siyosiy hokimiyatning legitimlik holatidan kelib chiqadi.

Ijro hokimiyati legitimligini ta'minlash konsepsiyasi jamiyatning davlat hokimiyatiga, uning sub'ektlariga, boshqaruv shakliga, siyosiy rejimga nisbatan ijobiy munosabatini nazarda tutadi, bu esa shunga muvofiq ravishda davlat hokimiyatining ixtiyoriy tan olinishini ta'minlaydi.

Quyida davlat hokimiyati legitimligi asosiy elementlari haqida ma'lumotlarni keltiramiz.

Davlat hokimiyati legitimligi manbalari

Legitimlik manbalari (M.Veber bo'yicha)	
An'anaviy	Qonuniylik qadimiy an'analarni ma'qullashga va ushbu an'analarga muvofiq hokimiyatni amalga oshiradigan rahbarlarga bo'ysunish zarurligiga qat'iy ishonchga asoslangan bo'lishi mumkin.
Alohida shaxsiy fazilatlar (xarizmatik)	Legitimlik shaxsning namunali xarakteri yoki xarizmasiga asoslanishi mumkin. Legitimlik shaxsning namunali xarakteri yoki xarizmasiga asoslanishi mumkin.
Qonuniylik	Qonuniylik hokimiyat qonuniy tarzda amalga oshiriladi

	degan ishonchga asoslanishi mumkin. Qonuniy qilingan narsa qonuniy hisoblanadi.
--	---

Shunday qilib, M. Veber legitimlik, ya'ni jamiyatni qonuniy boshqarishining uchta asosini aniqlab berdi: oqilona-huquqiy, xarizmatik, an'anaviy.

Davlat hokimiyatining legitimligi turlari

Legitimlik turlari (David Iston bo'yicha)	
Dunyoviy- ma'rifiy qonuniylik	Bu qonuniyat turi jamiyatda hukmron bo'lgan mafkura - jamiyat a'zolariga o'tmishni talqin qilish, bugungi kunni tushuntirish va kelajak haqida tasavvur berishga yordam beradigan ideallar, maqsad va vazifalarning shakllangan majmui.
Strukturaviy- tarkibiy qonuniylik	Qonuniylik bu turi asosida muayyan tizim a'zolari qonuniy deb qabul qiladigan siyosiy rejimning tuzilmalari va normalari bo'ladi.
Shaxsiy qonuniylik	Agar hokimiyatni boshqarishda yordam beradiganlarning xulq-atvori va shaxsiyati ustunroq ahamiyatga ega bo'lsa va jamiyat a'zolari ushbu hokimiyatni ishonchli deb hisoblasa, bu shaxsiy qonuniylik deb ataladi.

Davlat hokimiyati legitimligini ta'minlovchi texnologiyalar asosan siyosiy madaniyatning ta'sir darajasi va shaxsning siyosatdagi o'zni bilan belgilanadi. Mutaxassis olimlar P.Berger va T.Lakmanlarning fikriga ko'ra, hokimiyatni legitimlashtirish jarayoni siyosiy voqelikda sodir bo'layotgan siyosiy munosabat va hodisalarni tushuntirish yoki ehtimol ma'lum darajada oqlash usullarini me'yoriy va kognitiv talqin qilish orqali ifodalanadi¹¹.

Davlat hokimiyati legitimligini ta'minlash jarayoni o'z mazmun-mohiyatiga qarab bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shu sababli uni turli asoslarda tasniflash mumkin: davlat hokimiyati legitimligini ta'minlashda aynan ijro hokimiyati sub'ekti va ob'ekti o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, ijro hokimiyati legitimligini ta'minlashning ijtimoiy-madaniy omillari barqarorligi, ijro hokimiyati legitimligini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari mustahkamligi va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, legitimlikning har bir turi davlat hokimiyatini qonuniylashtirishning o'ziga xos mexanizmiga ega.

Shu nuqtai nazardan, ijro hokimiyati legitimligini ta'minlashning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tizimni tanib olish, ya'ni, davlat institutlari shakllanishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan siyosiy mexanizmlarni mavjudligi;
- asosiy qonun bilan mustahkamlash (uning avtorizatsiyasi);

¹¹ Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности: Трактат по социологии знания / пер. с англ. Е. Руткевич ; Моск. филос. фонд. М., 1995. 323 с.

siyosiy kommunikativlik tizimini amal qilishi. Ushbu funksiyalarni tushunish ijro hokimiyatini tan olish va ta'minlash jarayonining mohiyati va ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Ijro hokimiyatining legitimligini talqin qilishning klassik yondashuviga ko'ra yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar zamonaviy legitimlashtirishning an'naviy bo'lmagan shakllarini ajratib ko'rsatish orqali hal qilinadi. Masalan nemis olimi A.Gelen o'zining "Ijtimoiy fanlar lug'ati" nomli maqolasida kundalik boshqaruvni amalga oshiruvchi hokimiyatlarning legitimligi uning funkcionalligi nuqtai nazaridan tavsiflash uchun ancha adekvat ekanligini ta'kidlagan¹². Uning nuqtai nazaridan, ijro hokimiyatining legitimligini tahlil qilish boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish sifati va samaradorligiga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, Gelen funkcionallikni hokimiyat institutlarini legitimlashtirishning aralash (tipik va klassik bo'lmagan) shakli sifatida keng talqin qiladi. U legitimlikni davlat boshqaruvini tan olish va asoslashning funkcion va "biopolitik" konteksti bilan bog'laydi.

Fikrimizcha, ijro hokimiyati faoliyatida siyosiy legitimlik legallik omili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda huquq va siyosat bir-birini to'ldiruvchi asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga ijro hokimiyatining oliy organi bo'lgan Hukumatning ijro hokimiyati organlari tizimida tutgan o'rni juda muhim bo'lib, u barcha ijro hokimiyati sub'ektlari faoliyatiga rahbarlik qiladi va qonunlarning ijrosini ta'minlashi ustidan nazorat olib boradi. Hukumat nafaqat ijro hokimiyati tizimida, balki umuman davlat mexanizmida muhim o'ringa ega. Binobarin, ijro etuvchi hokimiyat o'z faoliyat doirasining kengligi va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida davlat boshqaruvini amalga oshirishi bilan birga, jamiyatdagi o'zgarishlarga tezkor ta'sir eta olish imkoniyatlariga egaligi bilan ham o'ziga xos xususiyatga egadir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«O'zbekistonda ijro hokimiyati legitimligini takomillashtirish strategiyasi»** deb nomlangan. Unda mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan siyosiy islohotlar genezisi va mamlakat barqaror taraqqiyotni ta'minlash jarayonida ijro hokimiyati legitimligini amalga oshirishning mexanizmlari hamda ijro hokimiyati legitimligini ta'minlash va takomillashtirish strategiyasi tahlil qilingan.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohatlar juda muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratildi.

¹² Gehlen A. Soziologie der Macht // Handwörterbuch der Sozialwissenschaften. Stuttgart; Tübingen; Göttingen, 1961. Bd. 7.

Ma'lumki, qonunlar ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Vazirlar Mahkamasida Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasida tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasida Raisi lavozimining tugatilishi ham liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning yagona tizimiga rahbarlik qiladigan kollegial organdir.

Professor A.Rahmonovning fikricha, davlat idoralari davlat hokimiyatini ijro etish va davlat boshqaruv vazifalarini amalga oshirish uchun tashkil qilinadi. Bunda davlat-boshqaruv faoliyatining ijtimoiy maqsadi sifatida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

-me'yoriy hujjatlar, insonlarning xatti-harakat qoidalarini qabul qilish bilan bog'liq muvofiqlashtirish vazifasi;

-huquq-tartibot, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydigan tashkilotchilik vazifasi;

-fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat muhofaza vazifasi¹³.

Ma'lumki, 2017 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan "Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi" tasdiqlanib, unga ko'ra davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi¹⁴ xususan:

1. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

